

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi: Shartnoma.
2. Loyihaning nomi: “NODIRA AMINABONU” МЧЖ bilan Quyi Chirchiq tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo’limi o‘rtasida “Ta’mintonchi” siqilgan tabiiy gaz mahsulotini etkazib berish, “Sotib oluvchi” esa siqilgan tabiiy gaz mahsulotini qabul qilib, shartnomada shartlashilgan qiymatni to’lab berish majburiyatini olganligi to‘g‘risidagi shartnoma loyihasi.
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Quyi Chirchiq tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo’limi tomonidan ishlab chiqilgan va huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun 2022 yil 20 yanvar kuni elektron tizimga kiritilgan.

“NODIRA AMINABONU” МЧЖ bilan Quyi Chirchiq tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo’limi o‘rtasida tuzilayotgan, umumiy bahosi 2199600 (ikki million bir yuz to’qsoh to’qqiz ming olti yuz) so‘m miqdoridagi shartnoma loyihasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi.

Taraflar o‘rtasida tuzilayotgan mazkur shartnoma loyihasi O‘zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagи “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi №670-1 sonli Qonuni va boshqa tegis’hli qonun hujjatlari talablariga mos ravishda tuzilgan.

Taraflardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan taqdirda tomonlarga javobgarlik choralar qo‘llanilihi, kelis’hmovchiliklar paydo bo‘lgan taqdirda o‘zaro hal qilish yoki tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilish tartibi, barcha qoshimcha va o‘zgartirishlar yozma ravishda ikki tomonlama imzolanib tasdiqlangan holda tuzilishi nazarda tutilgan.

Shartnoma loyihasida taraflarning javobgarligi va nizolarni hal yetish tartibi va boshqa kelishilgan barcha shartlar qonun hujjatlari talablariga mos keladi va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsul’ti



T.Chegaboyev

2022yil «21» yanvar

